

ANTIUTOPIK ASARLARDA INSON RUHINING QURBONLIGI

Tursunaliyeva Ruxshona Ubaydulla qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **M.Abduraxmonova,**

KIUT “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Yevgeniy Zamyatinning “Biz”, Jorj Oruellning “Molxona” hamda Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarlari asosida antiutopik adabiyotda inson ruhining qurbon qilinishi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli davr va adabiy muhitga mansub asarlar o‘rganilib, ularda tasvirlangan “mukammal jamiyat” g‘oyasining asl mazmuni ochib beriladi. Ushbu asarlarda insonning o‘zligini yo‘qotishi, erkin fikrlash imkonining kamayishi va tenglik nomi bilan adolatsizlikning kuchayishi ko‘rsatib beriladi. Inson qalbi, his-tuyg‘ulari va mustaqil fikrlashi esa eng muhim qadriyat sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: antiutopiya, inson ruhi, shaxsiyik, erkinlik, nazorat, mukammal jamiyat, totalitarizm.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема жертвоприношения человеческого духа в антиутопической литературе на основе произведений Джонатана Свифта «Путешествия Гулливера», Юджина Замятина «Мы», Джорджа Оруэлла «Амбар» и Ахмада Азама «Мечта, или Путешествие в Гулистан». В ходе исследования изучаются произведения разных периодов и литературных сред, раскрывая истинный смысл изображенной в них идеи «идеального общества». Эти произведения демонстрируют утрату человеческой идентичности, упадок свободы мысли и рост несправедливости во имя равенства. В качестве важнейших ценностей выделяются человеческая душа, чувства и независимое мышление.

Ключевые слова: антиутопия, человеческий дух, индивидуальность, свобода, контроль, идеальное общество, тоталитаризм.

Abstract. This article analyzes the issue of the sacrifice of the human spirit in anti-utopian literature based on the works of Jonathan Swift's "Gulliver's Travels", Eugene Zamyatin's "Us", George Orwell's "The Barn" and Ahmad A'zam's "Dream or a Journey to Gulistan". During the research, works from different periods and literary environments are studied, revealing the true meaning of the idea of "perfect society" depicted in them. These works show the loss of human identity, the decline of free thought, and the increase in injustice in the name of equality. The human soul, feelings, and independent thinking are highlighted as the most important values.

Keywords: dystopia, human spirit, individuality, freedom, control, perfect society, totalitarianism.

Kirish. Insoniyat tamaddunining ibtidosidayoq vujudaga kelgan adabiyot zamonlar o‘tishi bilan o‘z mohiyatini yo‘qotmagan, balki tobora qadri ortib borayotgan, bashar ongining mislsiz ma’naviy xazinasini boyitib kelayotgan buyuk hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyot insoniyat tafakkurining eng nozik va eng og‘riqli nuqtalarini ifoda etuvchi badiiy maydonidir. Har hir davr o‘z qo‘rquvlari, umidlari va ichki ziddiyatlarini aynan adabiyot orqali namoyon qiladi. Ayniqsa, XX asr adabiyotida inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni badiiy ifodalashga yo‘naltirilgan yangi yo‘nalish - antiutopik adabiyot kirib keldi. Antiutopik asarlarda shaxs va jamiyat manfaatlari

o'rtasidagi muvozanat izdan chiqqan holda tasvirlanadi. Bunday ijtimoiy modelda insonning shaxsiy orzu-umidlari, ichki erkinligi va tanlov huquqi jamiyat talablariga boysuntiriladi. Bu janr o'zida kutilmagan kelajak tasavvurlarini, jamiyatdagi noxush o'zgarishlarni va insoniyatning o'zini anglashdagi murakkabliklarini aks ettirgan. XX asr o'zbek adabiyotida antiutopiya motivlarining faol qo'llanishi uchraydi. Bu motivlar jamiyatdagi adolatsizlik, ijtimoiy inqiroz, individning erkinligi cheklovchi kuchlarga qarshi kurashni ifodalovchi bir necha asarlarda ko'zga tashlangan.

Adabiyotlar tahlili. Rey Bred, ingliz yozuvchisi va adabiyotshunosi, o'zining antiutopik asarlari orqali jamiyatdagi muammolarni va insoniy qadriyatlar uchun kurashni yaratishga katta hissa qo'shgan adiplardan biri hisoblanadi. Uning ijodida totalitarizm, erkinlik, adolat va shaxsiy huquqlar kabi mavzular markaziy o'rin tutgan Antiutopiya janri adabiyotda muhim badiiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, adabiyotshunos olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Shu bois ushbu masalaning o'rganilganlik darajasiga ham to'xtalib o'tish zarur. Bu yo'nalish, avvalo, XX asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, inson erkinligi hamda jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy talqini bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Xususan, antiutopiya janrining nazariy asoslari va badiiy xususiyatlari G'arb adabiyotshunosligida bir qator olimlar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, T.Moylan, G.Klayes, L.Sargent kabi tadqiqotchilar antiutopik adabiyotning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning jamiyatdagi ogohlantiruvchi funksiyasi haqida ilmiy qarashlar ilgari surganlar.

O'zbek adabiyotshunosligida ham antiutopik adabiyot va uning poetik xususiyatlari muayyan darajada o'rganilgan. Xususan, D.Quronov, H.Boltaboyev, U.Hamdam kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy adabiy jarayon, roman poetikasi hamda badiiy tafakkur masalalari yoritilgan. [21.7] Bu tadqiqotlarda antiutopik ruh, jamiyat tanqidi va ramziy obrazlarning badiiy talqini kabi jihatlar ham muhim ilmiy masalalardan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, antiutopik usulda yozilgan badiiy asarlarda tasvirlangan jamiyat odatda shaxs etkinligi cheklangan, qat'iy tartib-qoidalar hukmron bo'lgan muhit sifatida namoyon bo'ladi. Bunday asarlarda inson individual shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy tizimning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Natijada shaxsning "men" tuyg'usi asta-sekin yo'qolib, uning o'rniga "biz" paydo qilinadi. Agar utopistlar insoniyatga ijtimoiy va axloqi fojialardan xalos bo'lish, poklanish yo'lini ko'rsatsalar, antiutopiya "umumiy baxt-saodat" uchun insondan qanday qurbonliklar talab qilinishi borasida o'quvchini tafakkur qilishga undaydi. "Antiutopiyada erksizlik va zulm hukmron bo'lgan jamiyat olami, shu jamiyatning qonunlarini o'zida sinab ko'rgan insonning his-tuyg'ulari orqali ochib beriladi, antiutopiyadagi eng muhim xususiyat shaxs va totalitar jamiyat o'rtasidagi konflikt hisoblanadi".[17] Shuning uchun ham sho'ro adabiyotida bu janr taqiqlangan edi, deb yozadi adabiyotshunos olim M.Chernyak.

Zo‘ravonlik – shaxs ustidan, tarix, tabiat ustidan zo‘ravonlik antiutopiyada markaziy o‘rin egallaydi. Maskur tadqiqotda XX va XXI asr antiutopik adabiyoti yozuvchilarining asarlari orqali insoniyatning murakkab holati, shaxsiy erkinlik hamda ongning qurbonligi muammolarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. Xususan, Jonathan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Yevgeniy Zamiyatinning “Biz”, Georgr Oruellning “Molxona” hamda Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarlari o‘zaro qiyosiy-tahliliy asosda ko‘rib chiqilib, ularda aks etgan ijtimoiy muammolar va inson erkinligi masalalari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, hermenevtik va tarixiy-adabiy metodlardan foydalanildi. Turli davr va adabiy muhitga mansub antiutopik asarlar mazmunan va g‘oyaviy jihatdan o‘zaro solishtirilib, ularda inson erkinligi va ruhiyati masalalarining badiiy talqini tahlil qilindi. Shuningdek, matnlar asosida konseptual yondashuv qo‘llanilib, inson ruhining qurbon qilinishi fenomeni ilmiy-nazariy asosda umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur masalalarni chuqurroq anglash uchun, avvalo, antiutopiya janrining shakllanishi va rivojlanish jarayoniga nazar tashlash muhimdir. XX asrda utopik adabiyot o‘rnini asta-sekin antiutopiya egallay boshladi. Shunga qaramay, bu janr o‘zining yakuniy nomini olgunga qadar turli atamalar bilan yuritilgan. Jumladan, “kaakotopiya” (yomon joy, yovuzlik holati), “salbiy utopiya”, “kontrutopiya”, “distopiya” (aylangan utopiya), “kvaziy-utopiy” (soxta utopiya) kabi nomlar qo‘llanilgan. XX asrda antiutopiya Amerika adabiyotida ham rivojlandi. Amerikaning eng yaxshi antiutopik kitoblar qatoriga Kurt Vonnegutning “Player Piano” (1952), Londonning “The Searlet Plague” (1912), Stiven Kingning “Yugurayotgan odam” (1982), Filipp Dikning “Otarimizning ishonchi” (1968), Yevgeniy Zamiyatinning “Biz” (1920), Jorj Orvellning “1984” (1949), Oldos Xakslining “G‘aroyib yangi dunyo” (1932), Stanislov Lemning “Yulduzlardan qaytish” (1961), “Futurologik Kongress” (1971), Vladimir Voynovichning “Moskva 2042” (1986) va albatta, Rey Bredberining “Forengeyt 451” (1953) asarlarini kiritish mumkin. Rey Bredberi kitobining nomi allaqachon ramziy ma‘noga ega va syujetning butun o‘qishga ishora qiladi. Kitobning boshida muallif shunday deb qayd etdi: “FAHRENHEIT 451”: “Kitob qog‘ozi yonib ketadigan va yonadigan harorat”. [4]

Bu butun kitob uchun kalitga aylanadi. Muallif kitobda odamlar qandaydir tushunarsiz g‘oyalarga qanday qilib ko‘r-ko‘rona ergashishi mumkunligini ko‘rsatishga harakat qiladi, lekin odam o‘zini qayta tiklashi va bir paytlar nafrat bilan to‘lib toshgan narsalarni tez-tez ta‘kidlashi uchun faqat bitta turtki yoki bir motiv yetarli.

Mazkur an‘ana vaqt o‘tishi bilan antiutopiya adabiyotda o‘z mavqeyini to‘xtatmadi va hatto o‘z yo‘lidan g‘alaba bilan o‘tishda davom etmoqda. XX asrda kitobxonlar orasida katta muhabbat va mashhurlikka ega bo‘lgan ko‘plab antiutopik asarlar buni namoyish etadi. Viktor Pelevin “SNUFF” (2011), Jeymis Dashner “Labirintda yuguruvchi”

(trilogiya) (2009), Kazuo Ishiguro “Hech qachon qo‘yib yubormang” (2005), Syuzanna Kollinz “Ochlik o‘yinlari” (trilogiya) (2008), Skott Vesterfeld “Xunuklar” (kitoblar seriyasi) (2005), Loren Oliver “Delirium” (kitoblar seriyasi) (2011), Veronika Rot “Divergent” (trilogiya) (2011), Ahmad A‘zam “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” (1995) kabi asarlarni misol qilish mumkin.

Zamonaviy antiutopik asarlar o‘ziga xos rivojlanishga ega. Asosan, bu asarlar hozirda mavjud bo‘lgan davlatni tasvirlamaydi, lekin voqealar sodir bo‘layotgan yaqin kelajakni kitobxonlarga taqdim etadi. Mualliflar turli adabiy hiyla-nayranglardan foydalanib, kitobxonga kelajak mamlakati eski tuzumlar qulashi oqibati ekanligini tushunishga undaydi, xususan, kelajak dunyosi hukmdorlari demokratiyaning asossizligi va yolg‘onligini ta’kidlaydilar.

Yuqorida keltirilgan XX va XXI asr antiutopik asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, antiutopik adabiyot o‘ziga xos badiiy estetik xususiyatlarga ega. Adabiy-fantastik janr sifatida antiutopiya ba‘zan utopik adabiyotning kichik janr sifatida talqin etildi. Biroq, ko‘plab o‘xshash jihatlarga qaramay, mazkur ikki yo‘nalish o‘z mohiyatiga ko‘ra tubdan farqlanadi. Xususan, antiutopik asarlarda jamiyat taraqqiyoti tendensiyalar asosida tasvirlanib, unda shaxs erkinligining cheklanishi, ijtimoiy zulm va ma’naviy inqiroz muammolari markaziy o‘rin egallaydi.

Antiutopik adabiyot namunalarini tahlil qilishda, avvalo, ushbu yo‘nalishning ilk badiiy ko‘rinishlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asari alohida e‘tiborga loyiq. Mazkur asar to‘liq antiutopik roman sifatida yaratilmagan bo‘lsa-da, unda jamiyat tuzumi, siyosiy tizim va inson tabiatiga oid keskin tanqidiy qarashlar satirik shaklda ifodalangan.

Jumladan, Gulliverning Lilliputiya tushib qolishi orqali muallif kichik jamiyat modeli misolida katta ijtimoiy muammolarini ochib beradi. Tuxumni qaysi tomondan sindirish masalasi atrofida yuzaga kelgan keskin ixtiloflar va keskin qarama-qarshilik aslida insoniyat tarixidagi diniy va siyosiy nizolarning ramziy ifodasidir. Bu esa antiutopik asarlarga xos bo‘lgan asoslanmagan muammolar orqali jamiyatni boshqarish g‘oyasini yodga soladi.

Asarning keyingi qismida Gulliver ulkan odamlar yashaydigan Brobdingneg mamlakatiga boradi. Bu yerda Gulliverning “kichraygan” holati ramziy ma’noda asarda aks etgan. Gulliver inson sha’ni va qadr-qimmatini qanday oson paymol etilishini his qiladi. Shu orqali muallif insoniyat jamiyatidagi adolatsizlik va kuchlar muvozanatining buzilishini yana bir bor tanqidiy ruhda yoritadi.

Adabiyotshunos Gregory Klaeys ta’kidlaganidek, “antiutopik asarlarda ilm-fan va aql jamiyat manfaatidan uzilib qolgan holatda tasvirlanib, u inson hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi”. [14]

Shu jihatdan, Laputa jamiyati ham ilm-fanning noto‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanishi natijasida jamiyat taraqqiyoti izdan chiqishini ko‘rsatadi.

Asarning to‘rtinchi qismida Jonatan Svift tomonidan tasvirlangan Guigngnmlar jamiyati orqali antiutopik g‘oyalar yanada chuqurlashadi. Gulliver aqlli va xushxulq otlar – Guigngnmlar davlatiga tushib qoladi. Bu jamiyat tashqi tomondan tartibli va mukammal ko‘ringani bilan, unda insoniy his-tuyg‘ular, mehr-oqibat va erkinlik yetishmaydi. Shu orqali muallif tashqi jihatdan mukammal ko‘ringan tuzum ham aslida inson tabiatiga zid bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Adabiyotshunos Jon Maylon ta‘kidlaganidek, bunday “ideal” jamiyatlar ko‘pincha inson erkinligini cheklovchi tizimga aylanadi. [16]

Shu jihatdan, “Gulliverning sayohatlari” asarini to‘liq antiutopik roman sifatida baholash mumkin bo‘lmasa-da, undagi g‘oyaviy yo‘nalish, jamiyat tanqidi va inson erkinligi antiutopik tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutganligini e‘tirof etish joiz.

Yevgeniy Zamyatining “Biz” romani XX asr antiutopik adabiyotining konseptual asoslarini shakllantirgan muhim asarlardan biri hisoblanadi. “Biz” romanida tasvirlangan Yagona Davlat tashqi jihatdan mukammal tartib va qat‘iy qonunlarga asoslangandek ko‘rinsa-da, aslida bu tizim insonning ichki erkinligi va ruhiy dunyosini cheklash orqali barpo etilgan. Tadqiqotchi “Gregory Klaeys ta‘kidlaganidek, bunday jamiyatlar tashqi tartib evaziga ichki erkinlikni yo‘q qiladi. [15]

Asar D-503-nomli muhandisning kundaliklari shaklida bayon etiladi. Jamiyatda shaxsiylik deyarli yo‘q qilingani: fuqarolar ism bilan emas, balki raqamlar orqali ataladi. Raqamlari zarb qilingan ko‘krak nishoni taqib yurishadi. Bu haqda adabiyotshunos Edvard J. Brovna shunday deydi: “Bunday tizimda inson mustaqil shaxs emas, balki umumiy mexanizmning bir qismi”ga aylanadi. [5] Ular bir xil kiyim kiyadi, bir xil tartibda yashaydi va hatto o‘zaro munosabatlarda ham individualliklardan mahrum.

Sevgi, tasavvur, ilhom, san‘at va erkin fikr kabi tushunchalar “kasallik” sifatida baholanadi. Odamlarning vaqti soatma – soat taqsimlanib, jadvalga solingan, bir vaqtda uyg‘onishadi, bir vaqtda ovqatlanishadi, bir vaqtlar ishlashadi. “Georgiy Kleys fikricha, antiuoptik tizimlar aynan insonning ichki erkinligini yo‘q qilish orqali barqarorlik saqlaydi”. [14] Bu esa inson ruhining bostirilishiga olib keladi.

Asarda yana bir muhim jihat – jamiyat tashqarisidan ajratilgandir. Yagona Davlat “Yashil devor” bilan o‘ralgan bo‘lib, fuqarolarga tashqi dunyo “Tartibsiz va yovvoyi sifatida ko‘rsatiladi bu orqali inson ongini ma‘lum chegarada ushlab turish va uni boshqa haqiqatni izlashdan to‘shish maqsad qilingan. Hattoki, shaxsiy xarakter, shaxsiy fikr bo‘lishi yovuzlik deb baholanadi va qattiq jazolanadi”.

D-503 ning hayotida I-330 paydo bo‘lishi bilan uning ichki dunyosida o‘zgarish boshlanadi. U sevgi tuyg‘usini his qiladi, o‘z fikrlariga shubha bilan qaraydi va asta-sekin tizimdan chetlasha boshlaydi. Injenerning hamkasblaridan biri sotqinlik qiladi. Va tutilgan isyonchilar qatori injenerni ham Buyuk Operatsiya – X nurlar bilan miyadagi tasavvur

markazi atalmish tomirchani uch marta kuydirish orqali tasavvurdan mahrum qilishadi. Soʻngra u hamma narsani aytib beradi va sobiq sevgilisini I – 330ni Gaz xonasida qiynoq solishlarini befarq kuzatadi. Roman inson ruhi degan kasallikdan davolanib yana, "Baxt" ato qilingan injenerning "Men ishonaman – biz gʻalabaga erishamiz. Chunki aql gʻalaba qilishi kerak", degan soʻzlar bilan yakunlanadi. Tadqiqotchilar romani sotsialistik jamiyat kelajagining bashorati deb baholashgan. Darhaqiqat, shoʻrolar davrida shaxs - "Men" romanga nomi berilgan "Biz"ga, toʻdaga, qiyofasiz olomonga aylantirildi. Shu oʻrinda ingliz yozuvchisi Jorj Oruell shunday fikr bildiradi. "Oʻylaymanki, Zamiyatni sovet tuzumining oʻz satirasining bosh nishoni qilib olmagan... Zamiyatning maqsadi, oʻylaymanki, aniq bir mamlakatni tasvirlash boʻlmagan, mashinalashgan taraqqiyot bizga qanday ofat bilan xavf solayotganini koʻrsatmoqchi boʻlgan" deydi. [12]

Bu asar haqida xulosa qilib aytganda, Yevgeniy Zamiyatni ushbu asar orqali insoniyatni ogohlantiradi: agar jamiyat rivoji inson ruhiyati va erkinligi hisobiga qurilsa, u qanchalik mukammal koʻrinmasin, baribir inqirozga yuz tutadi. Demak, haqiqiy taraqqiyot - bu tartib va erkinlik oʻrtasidagi muvozanatni saqlay olgan jamiyatdadir.

Yuqorida tahlil qilingan "Biz" asarida insonning ichki erkinligi kuchli nazorat orqali qanday cheklanishi koʻrsatildi. Endi esa shu masalani boshqa tomondan - yaʼni jamiyat va hokimiyat orqali ochib beradigan "Molxona" asariga oʻtamiz. Agar "Biz" asarida insonlar raqamlar orqali ifodalangan boʻlsa, "Molxona"da Jorj Oruell jamiyatni hayvonlar timsoli orqali tasvirlaydi. Asar hayvon haqidagi ertakka oʻxshasa-da, jamiyatdagi muammolarni tanqid qiluvchi chuqur maʼnoli asardir. Asar 1945-yilda Ikkinchi Jahon urushi avj olgan "xalq uchun kurashayotgan adolatli" sifatida boʻlgan Sovet Ittifoqi hukumronligi davrida nashr etilgan. Oruellning maqsadi esa bu harakatlar ortidagi haqiqatni oʻz asari orqali insonlarga yetkazish edi. Lekin oʻsha davrda bu asarni oʻqigan ayrim kitobxonlar uni oddiy hayvonlar haqidagi ertak sifatida qabul qilgan. Aslida esa siyosiy va ijtimoiy muammolarni ramziy shaklda yoritish maqsadida yaratilgan.

Asarda har bir hayvon maʼlum bir ramziy obraz boʻlib keladi. Oruell birgina sovet tizimini emas, balki totalitarizmning qanchalik ayanhli oqibatlariga sabab boʻlishini yoritib bergan.

"Molxona" asaridagi obrazlarni tahlil qilarkanmiz, undagi ramziy obrazlar haqida quyidagi mulohazalarni bildirish mumkin.

Mayor obraziga toʻxtalsak, uni ayni paytda jadidlarga qiyoslasak boʻladi. Mayor hayvonlarga ularning hozirgi hayoti aslida adolatsiz ekanini tushuntiradi. U insonlar ularni faqat mehnat qilish uchun ishlatishini aytib, hayvonlarni oʻz huquqlari uchun kurashishga undaydi. Shu orqali hayvonlar ichida ozodlikka intilish paydo boʻladi va ular birlashishga harakat qiladi. Lekin vaqt oʻtishi bilan bu gʻoya oʻzgarib ketadi.

Snouboll esa jamiyatni rivojlantirishni istagan yetakchi boʻlsa-da, hokimiyat uchun kurashda chetlashtiriladi. Bu orqali asarda erkin fikr va yangilik tarafdorlari tizimdan siqib

chiqarilishi ko'rsatiladi. Bu holat haqida Eric Jaccard shuni ta'kidlaydiki, antiutopik asarlarda hokimiyatni saqlab qolish uchun erkin fikr egalari yo'q qilindi.[6]

Xulosa qilib aytganda, "Molxona" asari ramziy obrazlar orqali antiutopik jamiyatning asosiy muammolarini-hokimiyatning buzilishi va inson erkinligining yo'qolishini chuqur ochib beradi. Asar nafaqat ma'lum bir tarixiy davrni, balki umuman har qanday jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli jarayonlarni fosh etadi. Jorj Oruell hayot bilan adabiyotni birgalikda olib borgan. Ularning yozganlarida real hayot oynadek aks etadi. "Molxona" asari ertakdek tuyulsa-da, yozuvchi kinoya yordamida siyosiy tanqidni erkin ifodalay oladi va buni a'lo darajada udalaydi.

"Molxona" asarida tasvirlangan jamiyatdagi soxta tenglik va hokimiyatning buzilishi masalalari boshqa antiutopik asarlarda ham turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asarida bu muammo yanada o'zgacha, lekin chuqur ma'noda ochib berilgan.

Ro'yo yoxud G'ulistonga safar asarida tasvirlangan voqealar orqali jamiyatning tashqi tomondan tartibli va osoyishta ko'rinishi ortida aslida qat'iy nazorat va bo'ysundirishga asoslangan tizim yashiringani ochib beriladi. Asarda G'uliston mamlakati ana shunday muhit sifatida tasvirlanib, unda inson erkinligi keskin cheklangan holatda namoyon bo'ladi.

Bu jamiyatda yashovchi insonlar zanjir bilan bog'langan bo'lib, ular bu holatni odatiy hayot tarzidek qabul qiladi. Eng e'tiborli jihati shundaki, odamlar erkinlik haqida o'ylamay qo'ygan, hatto erksizlikni hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilgan. Ular zanjirni shunchaki taqib yurmaydi, balki uni o'z hayotining bir qismi deb biladi. Hatto insonlar semirsa yoki ozsa, ularning zanjirlari ham shunga moslab o'zgartiriladi. Bu esa tizim inson hayotiga qanchalik chuqur singib ketganini ko'rsatadi. Eng achinarlisi, bu tartib kichik yoshdan boshlab shakllantiriladi – chaqaloqlar yurishni boshlashi bilanoq ularga ham zanjir taqiladi va ular shu muhitda ulg'ayadi. Natijada erksizlik tanlov emas, balki odatga aylanadi.

Adabiyotshunos Umarali Normatov ta'kidlaganidek, bunday asarlarda yozuvchi inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berib, o'quvchini mavjud tartib haqida chuqurroq o'ylashga undaydi.[22] Shuningdek, Ozod Sharafiddinov fikricha, adabiyot jamiyatdagi yashirin muammolarni ko'rsatish orqali inson tafakkurini uyg'otishga xizmat qiladi.[20]

Xulosa. Ushbu maqolani yozish jarayonida antiutopik asarlar oddiy badiiy asar emas, balki jamiyatdagi yashirin muammolarni ko'rsatib beradigan muhim adabiy vosita ekanligi yanada aniq bo'ldi. Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Jorj Oruellning "Molxona", Yevgeniy Zamyatinning "Biz", Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" kabi asarlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tashqi tomondan tinch va tartibli ko'ringan

jamiyat ichida aslida erkinlikning cheklanishi, inson fikrining boshqarilishi va haqiqatning yashirilishi mavjud bo'lishi mumkin.

Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, antiutopik asarlarda faqat siyosiy tuzum emas, balki insonning ichki erkinligi, mustaqil fikrlashi va haqiqatni anglash masalalari ham muhim o'rin tutadi. Bunday asarlar insonni o'ylashga, savol berishga va atrofdagi voqealarga befarq bo'lmaslikka undaydi. Maqolaning ahamiyati shundaki, antiutopik asarlar faqat adabiy janr sifatida emas, balki jamiyatni tushunish vositasi sifatida ham o'rganildi. Asarlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish orqali total nazorat, propaganda, shaxs erkinligining yo'qolishi va insonning bo'ysundirilishi kabi muammolar turli davrlarda takrorlanib kelishi aniqlandi.

Antiutopik asarlar o'quvchini hushyor bo'lishga chaqiradi. Ular erkin fikrlashning qadrini anglatadi va insonni haqiqatni izlashga undaydi. Chunki inson erkin fikrlashdan voz kechgan joyda jamiyat asta-sekin ma'naviy qullikka yuz tutadi. Shuning uchun antiutopik asarlar faqat kitob sahifalarida emas, balki hayotda ham muhim ogohlantiruvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad A'zam. Royo yoxud G'ulistonga safar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019. – pp. 1–200-b.
2. Boltaboyev H. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2019.
3. Bradbury R. Fahrenheit 451. – New York: Ballantine Books, 1953.
4. Braun, E. J. Antiutopiya haqida tadqiqot. – 45-47-betlar.
5. Erik Jakkard – Orwell va antiutopiya mohiyati, 2018, 45–47-b47-b.
6. Hamdam U. Adabiyot va tafakkur. – Toshkent, 2020.
7. http://uchebnikionline.com/leteratura/istoriya_zarubizhnoyi_literaturi_XX_stolitt_ya_-_davidenko_gy/roman-antiutopiya_stolittya.htm.
8. Huxley A. Brave New World. – London: Chatto & Windus, 1932.
9. Jonatan Svift. “Gulliverning sayohatlari”. – London, 1726-y.
10. Jorj Oruell. Zamyatin haqidagi tanqidiy fikrlaridan. – 47-47-betlar.
11. Jorj Orwell. Animal Farm. – London: Secker & Warburg, 1945. – pp. 1–120-b.
12. Kleys G. Antiutopiya: tabiiy tarix. – 72–75-betlar.
13. Kleys G. Dystopia: A Natural History. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – pp. 3–5.
14. Moylan T. Scraps of the Untainted Sky. – Boulder: Westview Press, 2000. – pp. 15–18.
15. M.Chernyak. Sovremennaya russkaya literatura. - SPb.: SAGA, 2004. -336s.
16. Orwell. G. Nineteen Eighty-Four. – London: Secker & Warburg, 1949.
17. Ozod Sharafiddinov – “Adabiyot – hayot darsligi”, Toshkent: Ma'naviyat, 2001, 214–216-b.
18. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018.
19. Sh.Xalilova. Rey Bred asarlarida antiutopiya: insoniy qadriyatlar va erkinlik uchun kurashning adabiy tasviri va o'zbek adabiyotidagi dastlabki motivlar. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyasining amaliyotga tadbiiq mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024 y. – 1336-1339 b.
20. Zamyatin Y. We. – New York: Dutton, 1924.